

MTT DA TARBIYALANUVCHILARNI SAYRLARDA HARAKATLI O`YINLARNI TASHKILLASHTIRISHDA PEDAGOGNING ROLI

Davirova Xulkarxon Berdibekovna

GulDu Ta 'lim va Tarbiya nazariyasi va metodikasi
(muktabgacha ta 'lim) magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada muktabgacha ta 'lim tashkilotlarida sayr davomida harakatli o`yinlar tashkil etish hamda unda pedagoglarning roli muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: MTT, pedagog, harakatli o`yin, sayr, metod.

KIRISH

Pedagog o`yin qoidalariga rioya qilishi va xolis hakam sifatida harakat qilishi kerak. Harakatli o`yinlarni tashkil etishda eng muhim bolalarni jalb qilish va qiziqtirishdir. O`zingizni “navbatchi” iborani qo'llashda cheklamang. “Hozir esa biz ... o`ynaymiz”. Bolalarni ko‘zda tutilayotgan harakatlarga qiziqtirish lozim. Pedagogning o`zi o`yin ishtirokchisi bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Dastavval, qoidalarni aniq qilib tushuntirish kerak. Gapirayotib bir vaqtning o`zida harakatlarni ko‘rsatib berish, ya’ni o`yin haqida obrazli tasavvurlarni shakllantirish ham ayni muddao. Bolalardan biri o`yinda alohida e’tibor talab qiladigan joylarni takrorlasin. Agar o`yin davomida qoidalalar bajarilmasa, pedagog o`yinni to‘xtatadi va do‘stona ohangda xato nimada ekanligini tushuntiradi. O`yin davomida pedagog his-hayajon bilan ishtirok etishi kerak. Agar o`yinga qiziqishni yo‘qotsangiz, qoidalarni murakkablashtirsa bo‘ladi. O`yinni to‘xtatish kerak bo‘lgan paytni o’tkazib yubormaslik lozim. O`yinlar uchun murakkab bo‘lmagan anjomlarni tayyorlash va zaxirada qiziq sanoq she’rlarni saqlash zarur.

ASOSIY QISM

Didaktik o`yinlar va mashqlar sayrning tarkibiy komponentlaridan hisoblandi. Ular kichik yoshda 3-4 daqiqa, katta yoshda esa 5-6 daqiqa davom etib, ko‘p vaqt talab etmaydi.

Har bir didaktik o`yin didaktik vazifa, mazmun, qoidalari va o`yin vaziyatlaridan iborat.

Didaktik o`yin turlari:

- predmetli o`yinlar (o`yinchoq yoki tabiat materiali bilan).
- so‘z o`yinlari.

Bolalar faolligini rag‘batlantirish uchun turli **didaktik mashqlardan** foydalilaniladi. Ular bitta sayr davomida bir necha marotaba o’tkaziladi. Didaktik mashqni bolalarga boshida, oxirida taklif qilish yoki uni kuzatuv jarayoniga qo‘sish

mumkin: masalan, “Sariq barg olib kel”, “Bargga qarab daraxtni top”, “Ta’rif bo‘yicha daraxt yoki butani top” va hokazo. Ularni butun guruh bilan yoki uning bir qismi bilan o‘tkazish mumkin.

Mustaqil o‘yin faoliyati davomida bolalar sayohatlar, kundalik hayot davomida olgan taassurotlarini aks ettiradilar va kattalarning mehnati haqidagi bilimlarni oladilar. Bu syujetli-rolli o‘yinlar davomida sodir bo‘ladi.

Har bir o‘yin turi bolalarni har tomonlama tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Guruhdagi o‘yinlar qanchalik xilma-xil bo‘lsa, bolalar hayoti ham shunchalik mazmunli va qiziqarli bo‘ladi, “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturini amalga oshirish va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun shuncha ko‘p imkoniyatlar bo‘ladi. Aynan shuning uchun bolalar har xil o‘yinlar o‘ynashlari, nafaqat syujetlirolli, balki turli qoidalari bo‘lgan o‘yinlarni tashkil etishlari muhim.

O‘yin – ta’lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etuvchi pedagogik vosita.

O‘yinchoq – o‘ynash uchun mo‘ljallangan predmet.

O‘yin harakatlari – operatsion-texnik jihatdan forig‘ bo‘lgan harakatlar, bu mohiyati bo‘lgan harakat, ular namoyon etish xarakteriga ega.

O‘yin faoliyati – syujetli-rolli o‘yin, qoidalari bo‘lgan o‘yin va o‘yining boshqa turlari.

Didaktik o‘yinlar – bu bolalarni o‘qitish va tarbiyalash maqsadida pedagogika maktabi tomonidan maxsus yaratilgan qoidalari bo‘lgan o‘yinlar turidir. Didaktik o‘yinlar bolalar tarbiyasida o‘ziga xos muammolarni hal etishga qaratilgan, lekin shu bilan birga ular o‘yin faoliyatining ta’limiy va rivojlantiruvchi ta’sirini hosil qiladi.

Kommunikativ faoliyat – kattalar va tengdoshlar bilan muloqot va o‘zaro munosabat.

Ta’limiy faoliyat – ta’lim dasturlarini amalga oshirish faoliyati

O‘qitish – ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish, faoliyatga doir tajribani orttirish, qobiliyatlarni rivojlantirish, kundalik hayotda bilimlarni qo‘llashda tajriba orttirish va hayotlari davomida ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini shakllantirishga oid faoliyatni tashkil etishga yo‘naltirilgan jarayon.

O‘yining asosiy komponentlari – xayoliy vaziyat, rol va uni amalga oshiruvchi o‘yin faoliyati, shuningdek, o‘ynayotganlar tomonidan olingan rollar; o‘yin harakatlari ushbu rollarni amalga oshiruvchi vosita sifatida; predmetlarni o‘yin maqsadida qo‘llash, ya’ni haqiqiy predmetlarni o‘ynaladiganlari, shartlilariga almashtirish; o‘ynayotganlar orasidagi haqiqiy munosabatlari.

Qoidalari bo‘lgan harakatli o‘yin – bu bolaning ongli, faol faoliyati bo‘lib, barcha o‘ynayotganlar uchun majburiy qoidalari bilan bog‘liq vazifalarni aniq va o‘z vaqtida bajarish bilan tavsiflanadi. Ta’rifga ko‘ra, harakatli o‘yin – bu bolaning hayotga tayyorlaydigan mashqdir [4].

Xotira – bu insonning ruhiy xususiyati, tajriba va axborotni to‘plash, saqlash (yodda tutish), qayta ifodalash qobiliyatini.

Rivojlantiruvchi ta’lim muhiti – bolalarning ijtimoiylashuvi va individuallashuvi shartlari tizimi.

Rivojlantiruvchi o‘yinlar – diqqat, xotira, tafakkur va shu kabilarni rivojlantirish o‘yinlari.

Sport o‘yinlari – jamoalar yoki alohida sportchilarning o‘yin bellashuvi bilan bog‘liq mustaqil sport turlari bo‘lib, ma’lum qoidalar asosida olib boriladi.

Syujet – hayotiy motivatsion aloqalar bilan birlashtirilgan voqealar ketma-ketligi.

Syujetli-rolli o‘yin – syujetli o‘yin va rolli qadriyatga ega bo‘lgan o‘yining unsurlari va xususiyatlarini o‘zida birlashtiradigan o‘yin shakli yoki xolisona yangilikning yaratilishi.

Shunday qilib didaktik o‘yinni tashkil etishda pedagog amal qilishi kerak bo‘lgan pedagogik tamoyillar [5]:

- bolalarda mavjud bo‘lgan tasavvurlarga tayanish;
- vazifa yetarlicha murakkab, biroq ayni vaqtida bolalar bajara oladigan bo‘lishi kerak;
- didaktik vazifa va o‘yin harakatlarini asta-sekin murakkablashtirish;
- qoidalarni aniq va lo‘nda qilib tushuntirish.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari – 2018 y. Registr. № 3032 03.07.2018 dan.
2. Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Djanpeisova G.E. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. maktabgacha ta’lim muassasalari uchun. 2018 y.
3. Вахобова Ф., Зайнутдинова Д. Развивающие игры. «Бекинмачок плюс» 2009 г.
4. Зайнуддиновна Д., Усмонходжаева Г. Подвижные игры в детском саду. Тошкент «Янги аср авлоди» 2016 г
5. Кирьянова Р. А. Проектирование предметно-развивающей среды в дошкольном образовательном учреждении компенсирующего вида: Пособие для логопедов и воспитателей. - СПб.: КАРО, 2017.